



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA’LIMI VAZIRLIGI**

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

**UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI**

BIOLOGIYA

7

**Umumiy o‘rta ta’limning
7--sinflari uchun**

MUNDARIJA

1.	TABIIY VA IQTISODIY FANLAR TAVSIFI.....	4
1.1.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar tavsifi va integratsiyasi.....	4
2.	TABIIY VA IQTISODIY FANLAR BO‘YICHA O‘QUVCHILARDA RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR (umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilariga qo‘yladigan talablar)	7
2.1.	Ilmiy savodxonlik kompetensiyasi.....	7
2.2.	Amaliy kompetensiya.....	7
2.3.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar.....	8
3.	UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISH KONSEPSIYASI	9
3.1.	Biologiya fanini o‘qitish Konsepsiyasi	9
3.2.	Biologiya fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilariga qo‘yladigan talablar	22
3.3.	Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga biologiya fani bo‘yicha qo‘yladigan talablar	23
4.	BIOLOGIYA FANI O‘QUV DASTURLARI.....	29
4.1.	Tushuntirish xati	29
4.2.	Biologiya, 7-sinf	31



1. TABIIY VA IQTISODIY FANLAR TAVSIFI

1.1. Tabiiy va iqtisodiy fanlar tavsifi va integratsiyasi

“Tabiiy va iqtisodiy fanlar” blok-moduli o‘z ichiga biologiya, tabiiyot va geografiya fizika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslari o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

O‘quvchilarning tabiat to‘g‘risidagi ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda tabiat qonunlarini asoslab berishda biologiya, tabiiyot va geografiya, fizika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslari o‘quv predmetlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiatda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko‘rsatadigan ta’sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifasini belgilab beradi.

O‘quvchining ichki motivatsiyasining qanchalik shakllanganligi tabiiy va iqtisodiy fanlarga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi vani hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va ijtimoiy muhitga ta’sirini tahlil qilishda muhim o‘rin egallaydi.

Fanlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini tasavvur etishga yo‘naltirishi lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobiy ta’siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushunishi, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Shu bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan ta’lim yo‘nalishida ham yoshlarning iste’dodi va qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog‘lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida fanlardagi mavzularni kengaytirib o‘qitish maqsadga muvofiq.

STEAM ta’limi asosida tabiiy va iqtisodiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (**PISA, TIMSS**) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy, kreativ fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod ongiga singdirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitishda nafaqat ularning o'zaro ichki, balki tashqi, ya'ni turdosh blok-modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi fan yo'nalishlari bilan o'zaro chambarchas aloqalari muhim hisoblanadi:

Ona tili va adabiyot, xorijiy tillar o'quv predmetlari orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, yozma va og'zaki ravishda o'z qarashlarini ravon bayon etish malakalarini hosil qilishda, ilmiy atamalarni to'g'ri qo'llash hamda baxs-munozaralar jarayonida erkin muloqot qilishga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.



Matematika o'quv predmetida o'rgatiladigan malakalar tabiiy va iqtisodiy fanlar darslarida matematik o'lchov va hisob-kitoblar bilan bog'liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o'tkazish jarayonida eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilish uchun ahamiyatlidir.



Informatika va axborot texnologiyalari o'quv predmeti yordamida tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonining samaradorligini turli ko'rinishdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish orqali oshirishga ulkan imkoniyatlarni yaratadi.



Tarix o'quv predmeti tabiiy va iqtisodiy fanlar bilan ham bevosita bog'langan. Ilm-fan yutuqlarining ishlab chiqarish sohalari, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishi va atrof-muhit holatiga ta'sirini ko'rsatishda tarixiy ma'lumotlarning ahamiyati kattadir.



Texnologiya o'quv predmeti orqali tarkib toptirilgan kompetensiyalar tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijodiy loyiha tayyorlash malakalarini hosil bo'lishida yuqori kasbiy ahamiyatga ega hisoblanadi.



Tabiiyot va geografiya o'quv predmetlari o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy ob'ekt, jarayon va hodisalar, Vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalarni shakllantiradi, mustaqil fikr-mulohaza yuritishni, geografik bilimlarni amalda qo'llashni o'rgatadi. Fanni o'qitish jarayonida o'quvchilarda xaritalardan foydalana olish ko'nikmalari, ekologik, iqtisodiy va geosiyosiy savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tabiiyot va geografiya fani o'quvchilarda tabiat, aholi va xo'jalik haqida tushunchalarni shakllantirish jarayonida fizika, astronomiya, kimyo va biologiya fanlariga oid ma'lumotlardan foydalanadi, turdosh fanlar sohasidagi bilimlarni o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqib mazmun-mohiyatiga singdiradi. Shu bilan birga, tabiiyot va geografiya fanini o'qitish natijasida shakllantiriladigan tushuncha va kompetensiyalar boshqa tabiiy fanlarda o'rganiladigan ob'ekt, hodisa va jarayonlar haqida kompleks tasavvurni tarkib toptirishga xizmat qiladi.



Biologiya o'quv predmetlari o'quvchilarda jonli tabiatning ob'ekti va tizimini his etish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi aloqalarni shakllantiradi. Jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi yaxshilanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his qilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.



Fizika va astronomiya o'quv predmetlarini o'qitishda o'quvchilar tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan birga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda fizika va astronomiya qonunlarini qo'llashni o'rganadilar. Fanni o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.



Kimyo o'quv predmetini o'rganish jarayonida o'quvchilar moddalar tarkibi, kimyoviy atamalarni farqlash, inson faoliyati va tabiatda ro'y berayotgan kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarga ega bo'ladilar. O'quvchilar kimyoviy birikmalarning farqlarini, tabiiy tizimlarning kimyoviy asosini, moddalarning tuzilishi va tarkibining o'zaro bog'liqligini o'rganishadi. Kimyoviy moddalardan, maishiy kimyo mahsulotlaridan ehtiyokorlik bilan foydalanish va ular asosida eksperiment o'tkazish ko'nikmalari rivojlanadi.



Iqtisodiy bilim asoslari o'quv predmeti o'rganish jarayonida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatishdan iborat.



Tadbirkorlik asoslari o'quv predmetini o'rganish iqtisodiy faoliyat sub'ekti sifatida qaralgan holda o'quvchilarning kelajakdagi hayotiy qobiliyatlarini oshirish, buning uchun iqtisodiyotning tuzilishini o'rganish, undagi o'rnini his etish, zamonaviy iqtisodiy xulq-atvor normalarini, iqtisodiy madaniyatni egallash, zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish borasidagi tushunchalar, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

2. TABIIY VA IQTISODIY FANLAR BO‘YICHA O‘QUVCHILARDA RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR

(umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar)

2.1. ILMIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYASI

nazariy bilimlar asosida turli tabiiy ob’ektlar, hodisa va jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo‘llaydi;

hodisalarni kuzatadi, tadqiqotlar, tajribalar o‘tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o‘lchov tasmasi, termometr va .h.k.o) yordamida o‘lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;

turli axborot manbalarida berilgan ma’lumotlarni tahlil qiladi, saralaydi, ulardan ta’limiy maqsadlarda foydalanadi va muloqot jarayonida bildirilgan fikrlarni tushunadi, mustaqil va ijodiy fikrlaydi;

jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘ladi hamda o‘z faoliyatini kreativ rivojlantira oladi;

tabiiy va boshqa resurslarning jamiyatdagi o‘rni hamda shaxsiy faoliyatidagi ahamiyatini biladi;

insonning atrof-muhitga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishini tushuntiradi hamda global va mintaqaviy ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini ayta oladi;

ekologik muammoni hal etish yo‘llari va g‘oyalarini ilgari suradi, o‘z fikrini bayon etadi;

salomatlik va sog‘lom turmush tarzining nazariy hamda amaliy asoslarini biladi.

2.2. AMALIY KOMPETENSIYA

turli axborot manbalaridan zaruriy ma’lumotlarni topa oladi, shaxsiy va kasbiy faoliyatida qo‘llaydi;

tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo‘llaydi;

turli jihozlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi;

o‘z turmushi va yashayotgan hududining barqaror rivojlanishiga amaliy ko‘nikmalarini safarbar etadi;

mavjud imkoniyat va resurslarini innovatsion faoliyatga yo‘naltira oladi va xalq farovonligiga ijobiy hissa qo‘shadi;

insoniyat va tabiatning uzviyligini anglagan holda, tabiat va tabiiy boyliklaridan samarali foydalanadi;

atrof muhit va ekologiyaga salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etadi hamda asraydi va o‘z faoliyatida sog‘lom turmush tarziga amal qiladi;

kundalik faoliyatida ijodiy va mantiqan fikrlab, o‘zining intellektual rivojlanishini ongli rejalashtiradi, o‘quv faoliyati natijalarini nazorat qiladi va baholay oladi.

2.3. TABIIY VA IQTISODIY FANLAR ORQALI O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiy va iqtisodiy fanlar bloki yo'nalishidagi fanlari orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda tabiiy va iqtisodiy fanlarga oid atamalarni to'g'ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur.

Fanlarni o'qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.



3. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISH KONSEPSIYASI

3.1. BIOLOGIYA FANINI O'QITISH KONSEPSIYASI

1-bob. UMUMIY QOIDALAR

1. Biologiya fanini o'qitishni rivojlantirish Konsyepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya xalq ta'limi tizimida biologiya fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi.

Jumladan: ta'lim sohasi rivojlangan xorijiy Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribasidan foydalanib, milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

biologiya fanidan Davlat ta'lim standarti talablarini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

biologiya fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish;

biologiya fanini umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish;

biologiya fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

biologiya fanini mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan biologik bilimlarni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

biologiya fanini o'qitishda variativ o'quv modullarini ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'lim jarayoniga biologiya fanini o'qitishda milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish;

biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ekologik tarbiyaning samarali shakl, usularini keng joriy etish va ekologik madaniyatni shakllantirish;

biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni o'zlarining va o'zgalarning salomatliklarini saqlashga, sog'lom turmush tarziga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda biologiya fani bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

biologiya fani bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo'naltirish;

biologik ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta'minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish;

biologiya fani metodik va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini joriy etish.

2-bob. BIOLOGIYA FANINING AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishi, ya'ni 2030 yilga kelib iqtisodiyotning fan va texnika yo'nalishi bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta'kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, Shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat rivojlanishiga shiddatli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga infratuzilmaning eskirganligi, kadrlar kompetensiyalarining iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga nomuvofiqligi, intellektual mulkni himoya qilish muammolari, oliy ma'lumot olish imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori texnologiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, inson kapitali va imijiga zarur miqdordagi investitsiyalarning sarflanmasligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, o'rta bo'g'indagi rahbar va xodimlarning past darajadagi malakasi, ishchilarda mehnatga nisbatan rag'batning yo'qligi, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar o'z yechimini kutmoqda.

Bunda mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, yangi va zamonaviy bosqichga ko'tarish zarur vazifa etib belgilandi.

Ta'limi tizimida 11 yillik ta'limning joriy qilinishi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimining funksiyalari o'zgarishi hisobiga biologiya fanini o'qitish mazmuni va metodikasining rivojlanishida ayrim bo'shliq va kamchiliklar yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda biologiya o'qitishning amaldagi holati tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi. Jumladan:

biologiya fanini o'quv metodik ta'minoti (o'qituvchi kitobi, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, fan bo'limlari va mavzularining o'qitish ketma-ketligi hamda murakkablik darajasini qaytadan ko'rib chiqish;

biologiya o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish;

biologiya fani yo'nalishida fundamental va amaliy tadqiqotlarga asoslangan zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish;

biologiya o'qitishning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etish;

o'quvchilar darsliklardagi o'quv materiallarni o'zlashtirishda bilishga qiziqish, ishtiyoqni hosil qiladigan o'yin va mashqlar, art-texnologiyalar o'z aksini topmaganligi;

biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlash, mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanib o'qitish yo'lga qo'yilmaganligi;

biologiya fanini o'qitishda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun biologiya xonasining moddiy-texnik ta'minotiga kam e'tibor qaratilayotganligi;

biologiya fanini o'qitishda mavzular kesimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasining ishlab chiqilmaganligi;

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratilmaganligi;

o'quvchilarning tanqidiy, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan mashg'ulotning shakl va usuli ishlab chiqilmaganligi;

mavjud oliy ta'lim muassasalarida biologiya fani yo'nalishida pedagog-kadrlarning sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi, ularni o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos kompetent kadrlarni tayyorlashni taqazo etmoqda.

3-bob. BIOLOGIYA FANI KONSEPSIYASINING ASOSIY MAQSADI VA RIVOJLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarishda, biologiya sohalarining rivojlanishida, biologik tabiiy mahsulotlardan foydalanishda, aholini sog'ligini saqlashda va sifatli oziq ovqat bilan ta'minlashda, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Biologiya o'quv predmetining asosiy maqsadi:

biologiya fanini o'qitishning yangi sifat bosqichiga ko'tarish, jumladan zamonaviy axborot va kommunikativ texnologiyalardan, elektron darslik hamda zamonaviy laboratoriya jihozlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy yo'nalishlari va tamoyillarini tadbqiq etish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilash orqali biologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti talablarining ta'lim sifati va kadrlar malakasiga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

biologiya fani bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo'naltirish;

biologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy yo'nalishlari va tamoyillarini tadbqiq etish;

biologik ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini, mazkur jarayonning ilmiy asosda tashkil etilishi va boshqarilishi, kutiladigan natijalar samaradorligini orttirish;

o'quvchilarning bilim olish, tarbiyalash va rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratish, har bir o'quvchini o'z imkoniyati darajasida ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga imkon yaratish;

biologiyani o'qitishda ta'lim-tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, biologiya o'quv fani mazmuniga bog'liq holda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, estetik, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, jinsiy, mehnat va baynalminal tarbiyalash;

zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

biologiyani o'qitish jarayonini tabaqalashtirish asnosida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning ehtiyoji va qiziqishiga yarasha bilim olishlariga imkon yaratish;

biologiya o'quv fani bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda o'quv-metodik majmualarini yaratish;

o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkurni shakllantirish;

umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish;

biologik ob'ekt va jarayonlarning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, hamda olgan nazariy bilimlari asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borish, o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki mahnaviy, ahloqiy yetuk shaxs sifatlarini rivojlantirish;

Xalqaro baholash dasturi (PISA) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashi va ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini shakllantirishdan iborat.

Biologiya o'quv predmetining asosiy vazifalari:

o'quvchilarda asosiy biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar haqidagi tizimli bilimlarni tarkib toptirish;

o'quvchilarda tirik tabiatni bilish usullarini egallash va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quvchilarda organik olam manzarasini tasavvur etish, ilmiy dunyoqarash va amaliy muammolarni hal etish savodxonligining shakllanishida biologiyaning o'rni va rolini idrok etish ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quvchilarda biologik ob'ekt, hodisa va jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish, biologik qonuniyatlar mohiyatini tushuntirish ko'nikmalarini tarkib toptirish;

o'quvchilarni o'zlarining va o'zgalarning salomatliklarini saqlashga, sog'lom turmush tarziga rioya qilishga yo'naltirish;

biologiya ta'limi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika yutuqlari bilan bog'lanishini ta'minlash asosida o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

tabiat va uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo'lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi orqali o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish;

o'quvchilarni Davlat ta'lim standartlari asosida olgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashning barcha sinflarda qo'llanila oladigan yagona tizimini yaratish va joriy etish;

biologiya darslarida elektron darsliklar, virtual o'quv-laboratoriya, zamonaviy jihozlar, elektron vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va samarali foydalanish;

biologiya fanining o'qitishda sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan to'garaklar, ekskursiyalarni shakllari va mazmunini tubdan yangilash;

biologiya fanini ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish, zamonaviy jihozlar va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

biologiya fanini o'qitish jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

biologiya fanini mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

biologik bilimlar zaminida mahalliy o'simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi olimlarning biologiyaga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, biologiyadan olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

4-bob. BIOLOGIYA FANINING O'QUV-METODIK TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH

Biologiya fanini o'qitish jarayonida o'quv-metodik ta'minoti tarkibiga quyidagilar kiradi:

biologiya fanidan Davlat ta'lim standarti;

biologiya fani o'quv dasturi;

o'quv kurslarining darslik va o'quv qo'llanmalari;

elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar;

fan o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar;

o'quvchilar uchun o'quv- metodik qo'llanmalar;

zamonaviy o'quv laboratoriya asbob-uskunalari;

o'quvchilar uchun didaktik tarqatma materiallar;

elektron ishlanmalar, ko'rgazmali plakatlari, videomahsulotlar (multimediya mahsulotlari, interfoal doskalar, virtual laboratoriyalar, o'quv filmlar, slayd-prezentatsiyalar, namoyish eksperimentlarni ko'rsatuvchi animatsiyalar)

Biologiya fanini o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an'analarning idtisodiyot talablariga mos ravishda biologiya fani bo'yicha Davlat ta'lim standartini ishlab chiqish;

biologiya fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasida belgilangan biologiya fani o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;

tayanch o'quv rejaga muvofiq biologiya fanining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

biologiya fani bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni (darslik, laboratoriya ishi daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, o'quvchilar uchun o'quv-metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish;

o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratish;

biologiya fanini mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

biologiya fanini o'qitishda alternativ adabiyotlardan foydalanishni yo'lga qo'yish.

Biologiya fanining o'quv-metodik ta'minotini sinflar kesimida ishlab chiqish quyidagi printsiplar asosida amalga oshiriladi:

o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o'rta ta'limning zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

a) didaktik talablar:

o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash; matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

laboratoriya tajribalari bayoni alohida keltirilishi;

qiziqarli, sodda va hamma uchun qulay bo'lishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illyustratsiyalar: chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

b) ilmiy-metodik talablar:

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi;

kasb-hunarga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

v) pedagogik-psixologik talablar:

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

g) estetik talablar:

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

bo'lim, bob, mavzular va laboratoriya ishlari matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta'minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

d) gigienik talablar:

matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim.

**5-bob. BIOLOGIYA FANINING MODDIY-TEXNIK TA'MINOTINI
MUSTAHKAMLASH**

Biologiya fani moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 26 noyabrdagi PQ-4537-son qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari biologiya fan yo'nalishi uchun zarur bo'ladigan jihozlar va texnik vositalar me'yorlari qayta tahlil qilib chiqiladi.

"Zamonaviy maktab" davlat dasturi doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy o'quv laboratoriya barpo etish va muqaddam qurilgan maktab biologiya fani laboratoriyasini zamonaviy maktab namunasiga moslashtirishni ta'minlash;

o'quv laboratoriyalarni zamonaviy mebel, jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter, interaktiv doska, planshet va multimedia texnikalari, internet, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlashni ta'minlash, ularning o'z vaqtida yangilab borish choralari ko'rish;

o'quv laboratoriyalarni jihozlanish darajasini xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv asbob-jihozlar bilan ta'minlash;

o'quv laboratoriyalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar uchun kerakli jihozlarni davlat byudjeti, xomiy tashkilotlar va ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda dolzarb kasblarning birlamchi asoslarini o'rgatish uchun to'garaklarning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;

o'quv laboratoriyalarni moddiy-texnik ta'minotidan oqilona foydalanish va asrab-avaylash;

xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilgan holda foydalanish.

6-bob. BIOLOGIYA TA'LIMI JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JORIY ETISHNING ZAMONAVIY USULLARINI SHAKLLANTIRISH

Biologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

biologiya fani bo'yicha elektron kitoblarni mobil uskunalariga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida o'quv-metodik majmualar (darslik, laboratoriya daftari, tajriba namoyishlar, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

nazariy va amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan foydalanish;

ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish.

Har bir pedagog o'z kasbiy faoliyatida kompyuter imkoniyatlaridan erkin va faol foydalanishni, dars jarayonida tatbiq qilishini nazarda tutadi.

Biologiya darslarida quyidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga e'tibor beriladi:

yangi mavzuni bayon etish yoki mustahkamlash uchun slaydlar;

yangi mavzuni bayon qilish uchun har biri 5–10 minutli bo'lgan o'quv filmlar, videotasvirlar, multimediyalar;

turli mashqlarni, amaliy topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan o'yinli multimediyalar.

Bulardan tashqari, o'quvchilar mustaqil shug'ullanishlari uchun elektron darsliklar yaratish ko'zda tutiladi. Elektron darslikda ayrim muhim mavzular yoki deyarli barcha mavzular bayoni, undagi mashqlar, topshiriqlar, testlar multimediya orqali beriladi. Unda turli mashqlar, topshiriqlar va testlar o'yinli multimediyalardan iborat bo'lishiga erishish lozim.

Elektron vositalar o'quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, o'zlari ustida mustaqil ishlashga o'rgatadi, bo'sh vaqtlarining mazmunli va foydali bo'lishiga ko'maklashadi.

Biologiyani o'qitishda AKT vositalaridan foydalanish o'qituvchiga:

darsda ko'rgazmalilikni ta'minlash;

biologiyadan murakkab mavzularni tushuntirish;

o'quvchilarning tasavvur qilishi qiyin bo'lgan jarayonlar va hodisalarni ko'z oldida namoyon qilish;

sinfda o'tkazish qiyin bo'lgan tajriba va ko'rgazmalarni o'tkazish;

an'anaviy o'qitish shaklida reja asosida bir marta o'rgatiladigan mavzular, laboratoriya ishlarini mustaqil foydalanishga o'rgatish;

bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish;

o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ishlashiga zamin yaratish;

nazariy va amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan foydalanish;

o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini tezkor nazarot qilish imkonini beradi.

Biologiyani o'qitishda AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarga:

fanga bo'lgan motivatsiyasini oshirish;

biologiyadan murakkab mavzularni tushuna olish;

murakkab biologik jarayon va hodisalarni tasavvur qilib, ko'z oldiga keltira olish;

mustaqil ravishda tajriba, ko'rgazma va laboratoriya ishlarini elektron shaklda o'tkazish;

entsiklopedik ko'rinishdagi axborotlarni tezkor olish;

o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash;

o'quvchilarda sun'iy intellektni rivojlantirish;

mavzuni o'rganishda o'zi uchun qulay bo'lgan tezlik va o'zlashtirish darajasini tanlash;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga jalb qilish, uni egallash va unga doimiy ishlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish imkoniyatlarni beradi.

O'quv topshiriqlarini AKT vositalar yordamida o'quvchilarga taqdim etish bir qancha qulayliklarni tug'diradi. Chunki axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir o'quvchini o'qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

7-bob. KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning biologiya fani bo'yicha ilmiy dunyoqarashlarini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish, ijtimoiy hayotlari va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdan iborat. Konsepsiyaning asosiy maqsadi – umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi rivojlanish strategiyasini va yangi yondashuv tizimini belgilab olishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim natijasida dunyoqarashi keng, intellektual barkamol, kasbiy mahorati yuksak, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan avlod tarkib topa boradi.

Konsepsiya g'oyalarini biologiya ta'limi jarayoniga tatbiq etish:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya ta'limini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan g'oyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish keng qamrovli va ma'suliyatli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlari asosida yangi darsliklarni yaratish va nashr etish, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni yaratish va nashr etish, o'quvchilar uchun biologiyaga oid qo'shimcha adabiyotlarni yaratish va erkin savdo

uchun nashr etish, dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng tarzda foydalanishni tashkil etish lozim bo'ladi.

Konsepsiya g'oyalarini hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlarini biologiya ta'limiga joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Konsepsiya g'oyalarini biologiya ta'limi jarayoniga to'liq tatbiq etilishi umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyani o'qitilishini rivojlantirishga, biologiya ta'limi samaradorligini oshirishga, mamlakatimizning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

8-bob. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

konsepsiya umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartida belgilangan talablar uchun asos bo'ladi;

konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o'quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi;

biologiya fanini o'qitish bosqichlari, o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni va malaka talablari me'yorlari aniqlashtiriladi;

o'quvchilar tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'ladi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalanadi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi mezonlarni biladi, hayotida ularni qo'llay oladi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallaydi va hayotiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qila oladi;

STEAM (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics – matematika) ta'limini joriy etish orqali o'quvchilarining fanlar integratsiyasi asosida savodxonlik darajasini oshiradi;

xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS)da O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlanadi;

biologiyani o'qitish–maktab bitiruvchilarining ilmiy-texnik savodxonligini, ko'nikmalarini va kompetensiyalarini shakllantirish, shu bilan birga zamonaviy texnik tizimlardan professional darajada foydalanish, loyihalashtirishni o'rgatadi va umumiy o'rta ta'limning amaliy jihatlarini kuchaytirishga yordam beradi;

biologiyani o'qitishda AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarda sun'iy intellektni oshiradi:

fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tadbiqui orqali o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik va ixtirochilik qobiliyatlari rivojlantiriladi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashga va o'zini jismoniy chiniqtirish uchun o'quv va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

3.2. BIOLOGIYA FANI BO'YICHA UMUMIY O'RTA TA'LIM BITIRUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

ILMIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYA

– Biologiyani o'rganish usullari va metodlari; biologik qonun, nazariya, qonuniyat, gipotezalarning asosiy qoidalari; biologik ob'ektlarning tuzilishi va xususiyatlari; biologik hodisa va jarayonlar; zamonaviy biologik termin va simollar; tirik organizmlarning o'zaro va tashqi muhit bilan munosabatlari turlarni biladi.

– Ilmiy bilish usullari va metodlari mohiyati; biologik qonun, nazariya, qonuniyat, gipotezalar mohiyati; biologik ob'ektlarning tuzilishi va xususiyatlari; biologik hodisa va jarayonlarning mexanizmi, mohiyati va ahamiyati; zamonaviy biologik termin va simollar mohiyati, tirik organizmlarning o'zaro va tashqi muhit bilan munosabatlari mohiyati, insonning biosferadagi o'rni va rolini tushunadi.

– Biologik ob'ekt, hodisa va jarayonlar, biologik nazariya, qonun va qonuniyatlar yuzasidan ilgari o'zlashtirgan bilimlarni yangi va notanish kontekstda yoki vaziyatlarda qo'llaydi.

– Biologik ob'ekt, hodisa, jarayonlarni tarkibiy qismlarga, toifalarga, guruhlariga ajratadi, qismlar orasidagi munosabatlarni, umumiy qonuniyatlarni aniqlaydi, xususiydan umumiyga, umumiydan xususiyga va murakkabdan oddiyga yo'nalishida tahlil qila oladi.

AMALIY KOMPETENSIYA

– tabiiy fanlardan o'zlashtirgan bilimlarni integratsiyalaydi, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida mustaqil ravishda amalda qo'llaydi;

– tabiiy fanlarni o'rganish uchun jihozlardan xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri va oqilona foydalanadi;

– o'z turmushi va yashayotgan hududining barqaror rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi;

- axborotlarning turli manbalaridan o‘quv-bilish faoliyatida foydalana oladi, axborotlarni saralaydi, matn va grafik ma’lumotlar bilan ishlaydi;
- insoniyat va tabiatning uzviyligini anglagan holda, tabiat va tabiiy boyliklarini asraydi, samarali foydalanadi, kundalik faoliyatida sog‘lom turmush tarziga amal qiladi.

3.3. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARIGA BIOLOGIYA FANI BO‘YICHA QO‘YILADIGAN TALABLAR (7-, 10-SINFLAR KESIMIDA)

ILMIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYASI

1. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni biladi, taniydi, farqlaydi.
2. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlar mohiyati va ahamiyatini tushunadi, izohlaydi, talqin qiladi.
3. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni tarkibiy qismlarga ajratadi, qismlar orasidagi munosabat va umumiy qonuniyatlarni aniqlaydi, taqqoslaydi, tahlil qiladi.

AMALIY KOMPETENSIYA

1. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni ifoda etuvchi tushunchalar va qonuniyatlarni qo‘llaydi.
2. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni loyihalashtiradi, modellashtiradi, tatbiq qiladi.
3. Biologik sistemalar va biologik jarayonlarni baholaydi, tahliliy-tanqidiy fikr bildiradi, xulosa chiqaradi.

VII SINF

ILMIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYASI

Biologik ta’lim yo’nalishlari	Kompetensiyalar	Kompetensiyalar izohi	7-sinf bitiruvchisi:
sistemalar ning tuzilishi va k	kompetens	1. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni bilish, tanish,	1. Biologiya fani tarmoqlarini biladi, tirik organizmlarga xos xususiyatlarini farqlaydi. 2. O‘simlik va hayvon hujayralari, to‘qimalari va organlarini taniydi.

		farqlash.	3. O‘simlik va hayvonlar sistematikasidagi asosiy taksonomik birliklarni farqlaydi. 4. Bakteriya, protoktista, zamburug‘, o‘simlik, hayvonlarni tavsifi va tasviriga ko‘ra taniydi, farqlaydi. 5. Molekula, hujayra, organizm, populatsiya, ekosistema, biosfera tushunchalari mohiyatini tushunadi.
		2. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlar mohiyati va ahamiyatini tushunish, izohlash, talqin qilish.	1. Tirik organizmlarga xos xususiyatlarni izohlaydi, talqin qiladi. 2. Bakteriya, protoktista, zamburug‘, o‘simlik, hayvonlarning xilmaxilligini izohlaydi, talqin qiladi. 3. O‘simlik va hayvon hujayralari, to‘qimalari va organlarini tuzilishini izohlaydi, talqin qiladi. 4. Molekula, hujayra, organizm, populatsiya, ekosistema, biosfera tushunchalari mohiyatini izohlaydi, talqin qiladi.
		3. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni tarkibiy qismlarga ajratish, qismlar orasidagi munosabat va umumiy qonuniyatlarni aniqlash, taqqoslash, tahlil qilish.	1. Bakteriya, protoktista, zamburug‘, o‘simlik, hayvonlarning tuzilishi, yashash muhitiga moslanishlarini taqqoslaydi. 2. O‘simlik va hayvonlar hujayrasi, to‘qima va organlarini tuzilishiga ko‘ra tarkibiy qismlarga ajratadi, qismlar orasidagi munosabat va umumiy qonuniyatlarni aniqlaydi, tahlil qiladi.
		1. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni bilish, tanish, farqlash.	1. Tirik organizmlarda kechadigan biologik jarayonlar: hayvonlarning oziqlanish, nafas olish, ayirish, moddalar transporti, harakatlanish, o‘z-o‘zini boshqarish, ko‘payish jarayonlarini tabiiy, tasviriy, verbal vositalar asosida taniydi.
2. Biologik hodisa va jarayonlar kompetensiyasi		2. Biologik obyekt, hodisa va	1. O‘simlik va hayvonlarning oziqlanish, nafas olish, ayirish, moddalar transporti, harakatlanish,

		jarayonlar mohiyati va ahamiyatini tushunish, izohlash, talqin qilish.	o‘z-o‘zini boshqarish, ko‘payish jarayonlari mohiyati va ahamiyatini tushunadi. 2. O‘simlik va hayvonlarning oziqlanish, nafas olish, ayirish, moddalar transporti, harakatlanish, o‘z-o‘zini boshqarish, ko‘payish jarayonlarini izohlaydi, talqin qiladi.
		3. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni tarkibiy qismlarga ajratish, qismlar orasidagi munosabat va umumiy qonuniyatlarni aniqlash, taqqoslash, tahlil qilish.	1. Har xil sistematik guruhlariga mansub tirik organizmlarda kechadigan hayotiy jarayonlarga oid umumiy qonuniyatlarni aniqlaydi. 2. O‘simlik va hayvonlarning oziqlanish, nafas olish, ayirish, o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarini o‘zaro taqqoslaydi. 3. Umurtqasiz va umurtqali hayvonlardagi oziqlanish, nafas olish, ayirish, moddalar transporti, harakatlanish, o‘z-o‘zini boshqarish, ko‘payish jarayonlarini o‘zaro taqqoslaydi.
3. Organizm va tashqi muhit	1. Ilmiy savodxonlik kompetensiyasi	1. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni bilish, tanish, farqlash.	1. Turning morfologik, ekologik, fiziologik mezonlarini biladi. 2. Tirik organizmlarga ta’sir etuvchi abiotik va biotik omillarni farqlaydi. 3. Ekosistemalarda turlar o‘rtasida oziq zanjiri orqali munosabatlar, produsent, konsument, redutsentlarni farqlaydi. 4. Ekosistemalarning tarkibiy qismlarini biladi.
		2. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlar mohiyati va ahamiyatini tushunish, izohlash, talqin qilish.	1. Ekosistemalarda produsent, konsument, redutsentlarning ahamiyatini izohlaydi. 2. Biosfera – yerning hayot qobig‘i ekanligini anglagan holda insonning atrof muhitga ta’sirini tushunadi. 3. Organizmlar o‘rtasidagi munosabat shakllarini tushunadi, izohlaydi.
		3. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni	1. Organizmlar o‘rtasidagi ijobiy va salbiy munosabat shakllarini tahlil qiladi. 2. Tirik organizmlarning tashqi muhitga

		tarkibiy qismlarga ajratish, qismlar orasidagi munosabat va umumiy qonuniyatlarni aniqlash, taqqoslash, tahlil qilish.	morfologik moslanishlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi. 3. Ekosistemalarni tarkibiy qismlarga ajratadi.
--	--	---	--

AMALIY KOMPETENSIYA

Biologik ta'lim yo'nalishlari	Kompetensiyalar	Kompetensiyalar izohi	7-sinf bitiruvchisi:
1. Biologik sistemalarning tuzilishi va xilmaxilligi	1. Amaliy kompetensiya.	1. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni ifoda etuvchi tushunchalar va qonuniyatlarni qo'llash.	1. O'simlik va hayvonlarning tuzilishi, xususiyatlari, xilmaxilligini o'rganishda imiy tadqiqot metodlarini qo'llaydi. 2. O'simlik va hayvonlarning sistematikadagi o'rnini aniqlashda taksonomik birliklar va binar nomenklaturani qo'llaydi. Bakteriya, protoktista, zamburug', o'simlik, hayvonlar xilmaxilligiga oid tushuncha va qonuniyatlarni qo'llaydi, tatbiq qiladi.
		2. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni loyihalashtirish, modellashtirish,	1. O'simlik va hayvonlar hujayrasi, to'qima va organlari tuzilishini loyihalashtiradi, modellashtiradi. 2. O'simliklar va hayvonlar

		tatbiq qilish.	sistematikasini yaxlit tasavvur etgan holda modellashtiradi. 3. Tirik organizmlar xilmaxilligini o'rganish yuzadidan kuzatishlar olib boradi. 4. O'simlik va hayvonlar hujayrasi, to'qima va organlari tuzilishini o'rganish yuzasidan kuzatish va tajribalar o'tkazadi.
		3. Biologik sistemalar va biologik jarayonlarni baholash, tahliliy-tanqidiy fikr bildirish, xulosa chiqarish.	1. Bakteriyalar, protoktistalar, zamburug'lar, o'simliklar, hayvonlarning xilmaxilligini o'rganish yuzasidan olib borilgan kuzatish natijalarini baholaydi, xulosa chiqaradi. 2. O'simlik va hayvonlar hujayrasi, to'qima va organlari tuzilishini o'rganish yuzasidan kuzatish va tajribalar o'tkazadi
2. Biologik hodisa va jarayonlar	2. Amaliy kompetensiya.	1. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni ifoda etuvchi tushunchalar va qonuniyatlarni qo'llash..	1. O'simlik va hayvonlarning oziqlanish, nafas olish, ayirish, o'z-o'zini boshqarish jarayonlarini kuzatadi, tajribada o'rganadi. 2. Tirik organizmlarning oziqlanish, nafas olish, ayirish, moddalar transporti, harakatlanish, o'z-o'zini boshqarish, ko'payish jarayonlarini o'rganishda imiy tadqiqot metodlarini qo'llaydi.
		2. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni loyihalashtirish, modellashtirish,	1. Tirik organizmlarning oziqlanish, nafas olish, ayirish, moddalar transporti, harakatlanish, o'z-o'zini boshqarish, ko'payish

		tatbiq qilish	jarayonlarini modellashtiradi. 2. Tirik organizmlarning oziqlanish, nafas olish, ayirish, moddalar transporti, harakatlanish, o‘z-o‘zini boshqarish, ko‘payish jarayonlarini o‘rganish yuzasidan kuzatish va tajribalar o‘tkazadi.
		3. Biologik sistemalar va biologik jarayonlarni baholash, tahliliy-tanqidiy fikr bildirish, xulosa chiqarish.	1. Bakteriyalar, protoktistalar, zamburug‘lar, o‘simliklar, hayvonlarning tuzilishini o‘rganish yuzasidan olib borilgan tajribalar natijalarini baholaydi, tahliliy-tanqidiy fikr bildiradi, xulosa chiqaradi
3. Organizm va tashqi muhit	2. Amaliy kompetensiya.	1. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni ifoda etuvchi tushunchalar va qonuniyatlarni qo‘llash.	1. Tirik organizmlarga ta’sir etuvchi abiotik va biotik omillarga misollar keltiradi. 2. Tirik organizmlarning tashqi muhitga moslanishlariga misollar keltiradi. 3. Tirik organizmlarning tashqi muhitga moslanishini kuzatish orqali o‘rganadi.
		2. Biologik obyekt, hodisa va jarayonlarni loyihalashtirish, modellashtirish, tatbiq qilish.	1. Oziq zanjiri, oziq to‘ri tuza oladi.
		3. Biologik sistemalar va biologik jarayonlarni baholash,	1. Insonning atrof muhitga ta’sirini baholaydi, tahliliy-tanqidiy fikr bildiradi, xulosa chiqaradi. 2. Tirik organizmlarning tashqi

		tahliliy-tanqidiy fikr bildirish, xulosa chiqarish.	muhitga moslanishlarni baholaydi 3. Produsentlar, konsumentlar, redutsentlar ahamiyatini baholaydi, tahliliy-tanqidiy fikr bildiradi, xulosa chiqaradi.
--	--	--	--

4. BIOLOGIYA FANI O'QUV DASTURLARI

4.1. TUSHUNTIRISH XATI

Hozirgi ilm-fan, texnika va sanoat jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy, ekologik holat munosabatlari o'rganilib borilayotgan vaqtda maktablarda biologiya fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish (STEAM yondashuvi) ham zaruriyat, ham zamon talabidir.

Biologiya fanining ahamiyati uning fan-texnika va texnologiya taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalari va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirish orqali biologik bilimlarni amalda qo'llay olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Biologiya fanini o'rganish natijasida suvning inson va hayvonlar uchun ahamiyati, suvni behudaga isrof qilmaslik zarurligi, inson bilan tabiatning bog'liqligi, ovqatlanish gigienasi, jonli va jonsiz tabiat, inson tanasining tuzilishi, chekish, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarning inson organizmiga ta'siri, gulli o'simliklar haqida umumiy ma'lumotlar, O'zbekistondagi yirik qo'riqxonalar kabi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Biologiya fanini o'qitishning maqsadi:

o'quvchilarning mantiqiy fikrlay olish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, o'z-o'zini anglash salohiyatini tarkib toptirish, ularda milliy, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda zarur bo'lgan bilim ko'nikma, malakalarni egallashi, ulardan kundalik hayotlarida foydalanishga va o'quvchilarga tirik organizmlarning tuzilishi, kelib chiqishi, ko'payishi, xilmaxilligi, o'zaro munosabatlari, muhofazasi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni shakllantirish, bu borada fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash mahoratini shakllantirishdan iborat.

Biologiya fanini o'qitishning vazifalari:

asosiy biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar bilan tanishtirish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirish;

tirik organizmlarni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi

jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o'rgatish;

o'quvchilarni o'zlarining va o'zgalarning salomatliklarini saqlashga, sog'lom turmush tarziga rioya qilishga yo'naltirish;

biologiya ta'limi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika yutuqlari bilan bog'lanishini tahminlash asosida o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

tabiat va uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo'lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

biologik bilimlar zaminida mahalliy o'simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi olimlarning biologiyaga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni milliy istiqloq va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, biologiyadan olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishni talab qilmoqda.

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan. Shu sababdan, biologiya fani geografiya, kimyo, fizika fanlari bilan integratsiya qilgan holda o'qitiladi. Biologiya fanini o'qitishda o'simliklar va ularning ahamiyati, hayvonlarning tuzilishi, odam organizmining boshqarilishi va funksiyalari, odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigienasi, hujayralar shakli va tuzilishi, seleksiya sohasida yangi navlar yaratishga qaratilgan tushunchalar shakllantiriladi.

Dasturning yana bir jihati shundan iboratki, spiralsimon shaklda ma'lumotlar berilib, bunda o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga e'tibor qaratilgan.

Mazkur o'quv dasturda biologiya fani ixtisoslashtirilgan ta'lim uchun qo'shimcha soatlar (*) bilan berilgan. Bunda ajratilgan qo'shimcha soatlarni taqsimlashda o'qituvchilar ijodiy yondashgan holda, o'zlashtirilishi qiyin mavzular hamda amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratishlari tavsiya etiladi. Bunda o'quvchilarning ijodkorligi va amaliy ko'nikmalari rivojlantiriladi.

STEAM ta'limi bilim, ko'nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali sinfdagi dars mashg'ulotlari va maktabdan tashqari kundalik faoliyatida o'quvchilarning o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarib ko'rish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bunda o'quvchi yoshlarning qiziqishlarini ertaroq aniqlash va iqtidorini, ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirish, yangiliklarni hayotga tatbiq etish orqali

ilmiy izlanuvchanligi hamda yaratuvchanligini rivojlantirishni inobatga olib, mazkur o'quv dasturida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan **amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari** va mavzularda o'quvchilar mustaqil bajarishga va ijodiy fikrlashga undovchi **loyiha ishi** va nazorat ishlari uchun alohida soat ajratilgan. Shuningdek, mavzularda o'quvchilar mustaqil bajarishga va ijodiy fikrlashga undovchi **amaliy topshiriqlar** berilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulot tarkibiga mashg'ulotning bajarish tartibi va uni o'tkazish uchun zarur jihozlar nomi keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq bo'yicha tajriba o'tkazadi va olingan natijalariga ko'ra xulosa yozadi. Amaliy mashg'ulot namoyishli tajriba xarakteriga ega bo'lib, unga alohida dars soati ajratiladi.

Laboratoriya ishi o'tilgan o'quv materialini asosida tavsiya etilayotgan ishning maqsadi, uni bajarish tartibi va o'tkazish uchun zarur jihozlar to'plamini o'z ichiga oladi. O'quvchi laboratoriya ishida o'lchov ishlarini bajaradi, natijalari asosida jadvalni to'ldiradi, hisoblaydi hamda xatoliklarni aniqlaydi va xulosa yozadi.

O'quv-loyiha ishini tashkil etishdan oldin o'qituvchi loyiha ishi bo'yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqadi. O'quv-loyiha ishlari mavzu o'tilishidan oldin (muddat topshiriq turidan kelib chiqib, o'qituvchi tomonidan belgilanadi) o'quvchilarga topshiriq sifatida beriladi. Sinfidagi o'quvchilar yakka yoki guruhlariga bo'linib, mavzu bo'yicha belgilangan vaqt davomida mustaqil ravishda turli manbalar (darslik, Internet)dan axborotlar yig'adi, loyiha qurilmasini shakllantiradi va o'quv-tadqiqot ishini o'tkazadilar. Loyiha ishida ta'lim oluvchilar ishni rejalashtirish, uni bajarish, xulosa chiqarish, ish natijasi yuzasidan taqdimot o'tkazadilar. Loyiha ishi o'quvchilarda izlanuvchanlik va ijodkorlik faoliyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Amaliy topshiriq tarkibi mashg'ulot mavzusiga oid jihozlar ro'yxati, mashg'ulot mavzusiga oid matn, rasm, grafik yoki jadval orqali ifodalanadi. O'quvchi berilgan topshiriqlarni tavsiya etilgan jihozlar, matn, rasm, grafik va jadvaldan foydalanib bajaradilar va o'z xulosalarini bayon qiladilar. Amaliy topshiriqlar o'tilgan mavzular kesimida yoki fanlararo aloqadorligini qamrab oluvchi topshiriqlar bo'lishi mumkin.

VII SINF

I bob. TIRIK ORGANIZMLARNING XILMAXILLIGI

(10 soat)

Biologiya – hayot haqidagi fan. Biologiya-tirik organizmlarni o'rganuvchi fan. Biologiyaning maqsadi va vazifalari. Biologiya fani tarmoqlari. Biologiyaning inson hayotidagi ahamiyati. Biologiya bilan bog'liq kasblar. Biologiya fani ilmiy tadqiqot metodlari. Tirik organizmlarga xos xususiyatlar.

Tirik organizmlarning xilmaxilligi. Klassifikatsiya. Sistematika-klassifikatsiyalash haqidagi fan. O'simliklar va hayvonlar sistematikasidagi asosiy taksonomik birliklar. Binar nomenklatura. Tirik organizmlarni sistemalashtirishning ahamiyati. Tur haqida tushuncha. Prokariotlar va eukariotlar.

Bakteriyalar. Protoktistalar. Zamburug'lar. Bakteriya, protoktista, zamburug'larning xilmaxilligi, yashash muhiti, tashqi tuzilishi, ahamiyati. Bakteriya va zamburug'lar keltirib chiqaradigan kasalliklardan himoyalash choralar.

O'simliklarning xilmaxilligi. Sporal o'simliklar. O'simliklar dunyosining asosiy sistematik guruhlari. Sporal o'simliklar: yo'sinlar, qirqquloqlar, qirqbo'g'irlarning xilmaxilligi, yashash muhiti, tashqi tuzilishi, ahamiyati.

Urug'li o'simliklar. Ochiq urug'li va yopiq urug'li o'simliklarning xilmaxilligi, yashash muhiti, tashqi tuzilishi, ahamiyati. Bir va ikki urug'pallali o'simliklar.

Umurtqasiz hayvonlarning xilmaxilligi. Hayvonot dunyosining asosiy sistematik guruhlari. Umurtqasiz hayvonlar: kovakichlilar, yassi chuvalchanglar, to'garak chuvalchanglar, halqali chuvalchanglar, mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilarning xilmaxilligi, yashash muhiti, yashash tarzi, tashqi tuzilishi, ahamiyati.

Umurtqali hayvonlarning xilmaxilligi. Baliqlar, amfibiyalar va reptiliyalalar. Xordalilar tipi. Umurtqali hayvonlar. Baliqlar, amfibiyalar reptiliyalarning xilmaxilligi, yashash muhiti, yashash tarzi, tashqi tuzilishi, ahamiyati.

Qushlar va sut emizuvchilar. Qushlar va sutemizuvchilarning xilmaxilligi, yashash muhiti, yashash tarzi, tashqi tuzilishi, ahamiyati.

Amaliy mashg'ulot. O'simlik va hayvonot dunyosining asosiy sistematik guruhlari o'rganish

II bob. TIRIKLIKNING MOLEKULA VA HUYAYRA DARAJASI

(4 soat)

Hujayra – tirik organizmlarning tuzilish birligi. Hujayraning kimyoviy tarkibi. Hujayraning tuzilishi (hujayra qobig'i, sitoplazma, yadro). O'simlik va hayvon hujayrasi tuzilishi. Hujayra tarkibidagi kimyoviy elementlar va birikmalar. Suv va mineral tuzlar. Organik moddalar. Kimyoviy elementlarning o'simliklar hayotidagi ahamiyati.

To'qimalar. To'qima haqida umumiy tushuncha. O'simlik to'qimalari. Hosil qiluvchi, asosiy, qoplovchi mexanik, o'tkazuvchi to'qima. Epitelial (qoplovchi), biriktiruvchi, muskul va nerv to'qimalari, ularning tuzilishi, joylashuvi, funksional xususiyatlari.

Laboratoriya mashg'uloti. 1. Kattalashtirib ko'rsatuvchi asboblar. 2. O'simlik to'qimasidan vaqtinchalik preparat tayyorlash.

III bob. ORGAN VA ORGANLAR SISTEMASI

(7 soat)

Gulli o‘simliklarning vegetativ organlari. Ildiz. Organizm – yaxlit sistema. Organlar, organlar sistemasi va funksional sistema to‘g‘risida tushuncha. Ildiz. Ildizning vazifalari. Ildiz turlari. Ildiz tizimi. Ildiz metamorfozi

Novda. Novdaning tuzilishi va funksiyalari. Kurtak – boshlang‘ich novda. Poya – novdaning asosiy qismi. Barg – novdaning yon organi. Barglarning tuzilishi va funksiyalari.

Amaliy mashg‘ulot. Vegetativ organlar metamorfozini o‘rganish.

O‘simliklarning generativ organlari. Gul. Gulning tuzilishi. Gullarning xilmaxilligi. To‘pgullar.

Meva. Mevaning tuzilishi. Meva va urug‘ning biologik hamda inson hayotidagi ahamiyati.

Odam va hayvonlarning organlari va organlar sistemasi. Organlar sistemasi. Tayanch-harakat, endokrin sistema, qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, ayirish, nerv sistemasi haqida umumiy tushuncha.

IV bob. KOORDINATSIYA VA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH

(5 soat)

Tirik organizmlarning o‘z-o‘zini boshqarish. Tirik organizmlarning o‘z-o‘zini boshqarish xususiyati. Nerv sistemasining funksiyalari. Neyronlarning tuzilishi va turlari. Refleks yoyi. Nerv sistemasi qismlari: markaziy nerv sistemasi, periferik nerv sistemasi. Reflekslar. Shartsiz va shartli reflekslar. Hulq-atvorning reflektor tabiati. Instinkt.

Amaliy mashg‘ulot. Reflektor yoyini modellashtirish.

Nerv sistemasi. Odam va hayvonlar nerv sistemasining tuzilishi.

Laboratoriya mashg‘uloti. Yomg‘ir chuvalchangining refleksini kuzatish.

V bob. OZIQLANISH

(7 soat)

Organizmlarning oziqlanishi. Oziqlanishning mohiyati. Avtotrof va geterotrof oziqlanish. Oziqning ahamiyati. Oziqning tarkibi. Zararli oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilish natijasida yuzaga keladigan xavf. O‘simliklarning mineral oziqlanishi. O‘g‘itlar. Fotosintez. Fotosintezning ahamiyati.

Loyiha ishi. Mineral o‘g‘itlarning o‘simlik rivojiga ta‘sirini o‘rganish

Laboratoriya mashg‘uloti. Bargda organik moddalarning hosil bo‘lishi.

Hayvonlarning oziqlanishi. Hayvonlarda ovqat hazm qilishining o‘ziga xos jihatlari. Hayvonlarning ovqat hazm qilish organlari tuzilishi.

Odamning ovqat hazm qilish sistemasi. Ovqat hazm qilish organlari, tuzilishi, joylashuvi, funksiyasi.

Amaliy mashg‘ulot. Ovqat hazm qilish sistemasini modellashtirish

VI bob. NAFAS OLISH

(5 soat)

Nafas olishning mohiyati. O'simliklarning nafas olishi. Nafas olishning mohiyati va ahamiyati. Nafas olish turlari. Anaerob va aerob nafas olish. O'simliklarning nafas olishi.

Odam va hayvonlarning nafas olishi. Odam va hayvonlarning nafas olish organlari va ularning tuzilishi.

Laboratoriya mashg'uloti. O'simliklarning nafas olishini o'rganish.

Amaliy mashg'ulot. Fotosintez va nafas olish jarayonlarini taqqoslash.

VII bob. TIRIK ORGANIZMLARDA MODDALAR TRANSPORTI

(8 soat)

O'simliklarda moddalar transporti. Tirik organizmlarda oziq moddalar transportining ahamiyati. Ildizning ichki tuzilishi. Ildiz bosimi. Ksilema orqali suv va mineral tuzlar transporti. Floema orqali organik moddalar transporti. Transpiratsiya.

Laboratoriya mashg'uloti. O'simliklarda moddalar transportini o'rganish

Laboratoriya mashg'uloti. Barglarning suv bug'latishini o'rganish.

Umurtqasizlarning qon aylanish sistemasi. Organizmning ichki muhiti. Qonning funksiyalari. Qon tomirlari. Yomg'ir chuvalchangi, qisqichbaqa, hasharotning qon aylanish sistemasi organlari tuzilishi va qon aylanishi.

Amaliy mashg'ulot. Umurtqasizlarning qon aylanish sistemasini modellashtirish va taqqoslash.

Umurtqalilarning qon aylanish sistemasi. Baliq, baqa, kaptar, odamning qon aylanish sistemasi organlari tuzilishi va qon aylanishi. Hayvonlarda moddalar almashinuvi. Sovuqqonli va issiqqonli hayvonlar.

Amaliy mashg'ulot. Umurtqalilarning qon aylanish sistemasini modellashtirish va taqqoslash

VIII bob. AYIRISH (ekskresiya)

(4 soat)

Ayirish. Ayirishning organizmlar hayotidagi ahamiyati. O'simliklarda ayirishning xususiyatlari. Xazonrezgilik.

Odam va hayvonlarning ayirishi. Odam va hayvonlarda ayirishning ahamiyati. Moddalar almashinuvi qoldiqlari. Odam va hayvonlarda ayirish sistemalarining tuzilishi.

Amaliy mashg'ulot. Odamning ayirish organlarini modellashtirish

IX bob. HARAKATLANISH

(7 soat)

Tirik organizmlarning harakatlanishi. Tirik organizmlarning harakatlanish sabablari. O'simlik va protoktistalarning harakat reaksiyalari. Taksis, tropizm, nastiya. O'simliklar hayotida yorug'likning ahamiyati.

Loyiha ishi. O'simliklarda fototropizm, fotonastiya, geotropizm hodisalarini kuzatish.

Umurtqasizlarning harakatlanish organlari. Yassi, to'garak, halqali chuvalchanglar, mollyuskalar, bo'g'imoyoqlilarning harakatlanishi.

Laboratoriya mashg'uloti. Tufelka infuzoriyasining harakatlanishini kuzatish

Umurtqalilarning tayanch-harakat organlari. Baliqlar, qushlar, sutemizuvchilarning harakatlanishi.

Amaliy mashg'ulot. Umurtqali hayvonlarning tayanch-harakat sistemasini modellashtirish.

X bob. REPRODUKSIYA. O'SISH VA RIVOJLANISH

(7 soat)

Organizmlarning ko'payishi. Irsiyat va o'zgaruvchanlik. Hujayra irsiyatining moddiy asoslari apparati: genlar, xromosomalar. Jinssiz va jinsiy ko'payishning biologik ahamiyati. Bakteriya, protoktista, zamburug'larning ko'payishi. O'simliklarning jinsiy ko'payishi. Gulli o'simliklarning changlanishi va urug'lanishi.

Loyiha ishi. O'simliklarning vegetativ ko'payishini o'rganish.

O'simliklarning individual rivojlanishi. Gulli o'simliklarning hayot sikli. O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi. O'simliklarning urug'dan rivojlanishi. Novdaning bo'yiga va eniga o'sishi.

Amaliy mashg'ulot. Urug'li o'simliklarning hayot siklini o'rganish.

Hayvonlarning ko'payishi. Chuchuk suv gidrasi, yomg'ir chuvalchangi, o'rgimchak, hasharot, amfibiya, qushlarning ko'payishi.

Hayvonlarning individual rivojlanishi. Ontogenez: embriogenez va postembriogenez. Hayvonlarning to'g'ri va noto'g'ri rivojlanishi.

Amaliy mashg'ulot. Hayvonlarning to'g'ri va noto'g'ri rivojlanishini qiyosiy tahlil asosida o'rganish.

XI bob. TUR, POPULATSIYA, EKOSISTEMA, BIOSFERA

(4 soat)

Tur, populatsiya. Tur, populatsiya. Organizmlar soniga ta'sir etuvchi omillar (abiotik va biotik omillar). Organizmlar o'rtasidagi munosabat shakllari. Insonning atrof muhitga ta'siri

Amaliy mashg'ulot. Tirik organizmlarning tashqi muhitga moslanishini o'rganish

Ekosistemalar. Biosfera. Ekosistemalar. Ekosistemalarda turlar o'rtasidagi munosabatlar. Oziq zanjiri, energiya oqimi (oziq zanjiri, oziq to'ri, produsentlar, konsumentlar, redutsentlar). Biosfera – yerning hayot qobig'i.

Amaliy mashg'ulot. Oziq zanjiri va oziq to'ri tuzish.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot, nazorat ishi	Loyiha ishi	Laboratoriya mashg'uloti
1	Tirik organizmlarning xilmaxilligi	10	8	2	-	-
2	Tiriklikning molekula va hujayra darajasi	4	2	1	-	1
3	Organ va organlar sistemasi	7	5	2	-	-
4	Koordinatsiya va o'z-o'zini boshqarish	5	2	2	-	1
5	Oziqlanish	7	3	2	1	1
6	Nafas olish	5	2	2	-	1
7	Tirik organizmlarda moddalar transporti	8	3	3	-	2
8	Ayirish (ekskretsiya)	4	2	2	-	-
9	Harakatlanish	7	3	2	1	1
10	Reproduksiya, o'sish va rivojlanish	7	4	2	1	-
11	Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera	4	2	2	-	-
JAMI:		68	36	22	3	7